



## "TYPES AND BIOECOLOGICAL CHARACTERISTICS OF SITTING BIRDS IN THE TERMIZ CITY"

Boboxonov Muzaffar Ziyodullayevich <sup>1</sup>

<sup>1</sup> 2nd year master's degree student in zoology at Termez State University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4730998>

### ARTICLE INFO

Received: 20<sup>th</sup> April 2021  
Accepted: 25<sup>th</sup> April 2021  
Online: 30<sup>th</sup> April 2021

### KEY WORDS

Bird class, pigeons, music, sedentary bird, number, mating season

### ABSTRACT

*This article provides information on the biology and ecology of ring music from the sedentary birds found in our country, including the sedentary birds found in the city of Termez.*

## «TERMIZ SHAHRI SHAROITIDA UCHROVCHI O'TROQ QUSHLARNING TURLAR TARKIBI VA BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI»

Boboxonov Muzaffar Ziyodullayevich

Termiz Davlat Universiteti Magistratura bo'limi zoologiya mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20-aprel 2021  
Ma'qullandi: 25-aprel 2021  
Chop etildi: 30-aprel 2021

### KALIT SO'ZLAR

Qushlar sinfi, kaptarsimonlar, musicha, o'troq qush, soni, urchish davri

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada o'lkamizda uchraydigan o'troq qushlar shu jumladan Termiz shahri sharoitida uchraydigan o'troq qushlardan halqali musichaning biologiyasi va ekologiyasi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.*

Halqali musicha qushlar sinfining kaptarsimonlar (*Columbofermes*) turkumining musicha (*Streptopelia*) avlodiga mansub. Bu qush tanasining umumiy tuzilishi, parpatlarining rangi joylashish xarakteri bilan kaptarlarga o'xshaydi. Ammo u yana ham ko'proq musichalarga, ayniqsa katta

musichaga o'xshash ekanligini ta'kidlash kerak. Voyaga yetgan halqali musichaning ko'rinishini quyidagicha tavsiflash mumkin: Ya'ni, uning bosh qismi, bo'ynining orqasidagi parpatlar bo'z, kulrang tusda bo'lib, ba'zan vinorang - pushti tusda tovlanib turadi. Bo'ynining orqa qismida



ko'ndalang qora tusli halqasi bor, u o'roqsimon yo'nalgan bo'lib uzoqdan ham ko'zga yaxshi ko'rinib turadi. Tananing orqa yelka qismi va qoqish qanotlarini qoplovchi patlari va dum usti patlari kulrang tusdadir. Birinchi darajali qoqish patlari bir oz qoramtirroq, ikkinchi darajalari esa bo'zroq, qanoti osti patlari esa ko'kimtirroq tusda bo'ladi. Tomog'ining patlari tiniq - oqish rangda. Bo'yinning oldingi qismi va yon qismi, jig'ildon zonasi ko'krak qismidagi patlari tiniq oqish va pushti tusda bo'lib, quyoshda kulrang bo'lib tovlanadi. Tanasining qorin qismi va yon tomonlari havorang - kulrang, dum ostki patlari qo'ng'ir ko'kish bo'lib, dum patlarining uchi oxiri oq rang bilan tugaydi. Dumning o'rtasidagi patlar tanasining orqa qismi bir xil rangda, qolganlari esa asosiy qismida qoramtir - kulrang, uchki qismiga tomon tiniq kulrang yoki oq bo'lib boradi. Tumshug'i qora, oyoqlari esa qizg'ish rangda ko'zlari rangdor pardasining cheti qizil. Voyaga yetmagan, uyani tark etgan yosh halqali musichalarning par-patlarining rangi uncha shaffof bo'lmaydi, bir oz nursiz tovlanadi. Ularning bo'ynida qora tusli o'roqsimon halqa yaqqol ko'zga tashlanmaydi.

O'zbekiston sharoitida halqali musicha asosan qishloqlarda va shaharlarda yashaydi. O'troq qush. Uning yashashi ko'pincha turli daraxtzorlarni, butazorlarni va odamlarning turli inshootlari bo'lishi bilan bog'liq. Ko'proq daraxtzorlarni yoqtiradi. Keng ochiq maydonlarni, daraxtsiz hududni halqali musicha yoqtirmaydi. Buni turning O'zbekistonda tarqalishi xususiyati ham tasdiqlaydi ya'ni asosan odamlar va ularning bog'-chorbog'lari bor bo'lgan madaniy landshaft muhim yashash joyi hisoblanadi. Ba'zan ovqat izlab yaqinda joylashgan bug'doyzorlarda ham ko'rish mumkin. Ammo uzoqqa bormaydi. Agar dala atrofida ixotazorlar bo'lsa, suv, ozuqa manbai aniq bo'lsa bunday joyda ham bola ochadi. Ammo zichligi yuqori

bo'lmaydi. Uning odamga o'zini yaqin tutishi kichik musichadan ancha farq qiladi. Biroz hurkish unda doim bilinadi. Buni qishloq, shahar populyatsiyasi misolida ko'rish mumkin. Shaharda hurkish kamroq, qishloq, dalada esa ko'proq.

Soni. Ma'lumotlarga qaraganda halqali musicha soni, zichligi turli yashash joylarida, stanstiyalarida bir xil emas. Yangi qurilayotgan zonada ular juda ham kam o'rtacha soni 3 tani tashkil qiladi. Bunday tafovutlarni bo'lishi tabiiy bo'lib, o'rganilgan joylarda daraxt, buta, trofik sharoitning turlichaligi bilan bog'liq. Ba'zan un tegirmoni bo'lgan xonadonda ular ko'plab 50-100 tagacha to'planadi. Yirik ko'p qavatli imoratlar oldida daraxtlar bo'lmasa bunday joyda bu qush bormaydi ham. Ammo halqali musicha soniga abiotik omillar, ayniqsa qishda haroratning pasayishi ham ta'sir etadi. Yana ta'kidlash lozim bahordan yozga, kuzga tomon halqali musicha soni ortib boradi. Kuzdan bahorgacha soni kamayadi. Bu holatni albatta muayyan populyatsiya doirasidagi son dinamikasi, uni belgilovchi omillarning ta'siri bilan izohlash mumkin. Halqali musicha O'zbekistonda, jumladan Termiz shahri sharoitida o'troq yashaydi. Ya'ni yil davomida uya hududini tark etmaydi, boshqa uzoq joylarga ketmaydi. Urchish davri ancha erta fevral oyidan boshlanadi. Hatto ba'zan uning sayrashini yanvarning oxirgi dekadasigacha eshitish mumkin. Uning tuxumli uyalarini Termiz shahri sharoitida fevraldan to noyabr oyigacha topish mumkin. Urchish davrining cho'ziq bo'lishi bir tomondan turning ekologik valentligining yuqori bo'lishi bilan, ikkinchi tomondan yil davomida reproduktiv siklning bir necha marta takrorlanishi bilan ham bog'liqdir.

Halqali musicha ham boshqa kaptarsimonlar, musichalar kabi tipik donxo'r



qush. Dala ekinlarining urug'i bilan, kam hollarda esa ayrim qattiq qanotli hasharotlar-qo'ng'izlarni, mollyuskalarni ham yeydi. Hozirgacha O'zbekiston sharoitida uning ovqatlanishi maxsus o'rganilgan emas. Kech kuzda va qish davrida Termiz shahrida halqali musichalar qarg'alar tunaydigan xiyobonlarda ertalabdan to kechgacha ko'k kaptarlar galasi bilan birga qarg'alarni qusqilarini (pagadka) titkilab uning tarkibidan har xil urug'- donlarni terib olib ovqatlanadilar. Agar e'tibor berilsa bularda biotik munosabatlardan kommensalizmni namoyon ekanligini payqash mumkin. Ba'zan halqali musichalarni biz shahardagi axlat

chiqindilari tashlanadigan punktlarda ozuqa qidirib turganini uchratamiz. Ammo alohida aytish lozim: halqali musicha boshqadan don(urug')ni olmaydi. Doim yerga tushgan urug'larni terib yeydi. Uni ba'zan dala chumchug'i bilan tegirmon atrofiga, bozorlarda, yo'llar yoqasida va boshqa hududlarda (hovlida, parranadachilik fabrikalarida va boshqa) ovqat izlaganini ko'rish mumkin. Bu qush hamma joyda ham yer yuzasidan tushgan donlar, urug'lar, non ushoqlarini terib oladi. U tamoman zararsiz qush. Halqali musichalar bizda madaniy landshaftlarda yashagani bois katta estetik ahamiyat ham kasb etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ametov M.B. O naxojdenii kolchatoy gorlisty v nizovyax Amudari. Redkie i maloizuchnye ptisty Uzbekistana i sopredelnyx territorii: Tashkent 1994. S. 6-7
2. Baqoev S.B. Xolboev F.R. Kumri kupayish biologiyasiga doir. Organizm va muxit. Toshkent, 1995.197-198 bet.
3. Nazarov A.P. Kolchataya gorlista-Streptopelia decaocto Friv. V kn Ptisty Uzbekistana. T-2. Tashkent. «Fan» 1990.S.